

O'ZBEK TILIDA METAFORIK KO'CHIMLI SO'Z BIRIKMALARINING SEMANTIK TRANSFORMATSIYASI

Madaminov A.

Qoraqalpog' davlat universiteti

SBlarining tadqiqiga kognitiv yondashuv ularining hosil bo'lishiga asos bo'lgan inson ongidagi konseptual modellarini aniqlash, tilda voqelanish mexanizmini yoritish, SBlarida ifodalangan mazmunning inson bilimlari bilan bog'lanishi masalasini tadqiq etishni taqozo etadi. Masalan, *og'ir masala*, *yorqin kelajak* epitetsli birikmalarida insonning tashqi olam haqidagi qanday bilimlari faollashganligini aniqlash muhim. Mazkur epitetsli birikmalar tarkibidagi *og'ir*, *yorqin* so'zlari aslida jismlarning fizik-fiziologik sifatlariga tavsif beradi. Keltirilgan SBlarida esa ular fizik jismlarga nisbatan qo'llanmagan, bu birikmalarda til egalarining metaforik tafakkurini kuzatish mumkin. Inson nutqida bu tipdagi SBlarini shakllantirishda *og'ir* jismlar, *yorqinlik* haqidagi bilim, tajriba va tasavvurlariga tayanadi. A.Yuldashev tilda ko'chma ma'noga ega birliklar o'z-o'zidan yuzaga kelmasligini ta'kidlaydi, bunday til birliklarini "yasayotgan" vaqtida kishilar olamni idrok etish jarayonida egallagan bilimiga tayanishini, ya'ni vaziyatni baholash, qiyoslash orqali tafakkurida mujassamlab, shundan keyingina "lisoniy libos" kiydirishini ta'kidlaydi [7.: 58-59].

Keyingi yillarda antropotsentrik yondashuvda SBlarining nutqiy samaradorlik masalasi tahliliga qaratilgan ayrim tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu ishlarda tadqiqotchilar SBlarining gapni shakllantirishda qanday o'rin tutishi, birikmani hosil qiluvchi birliklarning nolisaniy vositalar bilan hamkorligi masalasini o'rganishga e'tibor qaratishdi [3.: 76; 4.: 289-294].

Bugungi kunda milliy tilshunosligimizda xususiy birikuvchili birikmalar kam o'rganilgan muammolardan biri sanaladi. Bu tipdagi birikmalar yarim tayyor holatda bo'lishi bilan ham olamning lisoniy manzarasida o'z o'rniga ega. Ular dunyo tilshunosligida *kollokatsiya* termini ostida tadqiq qilingan [2.: 245 p.; 6.: 49c.]. O'zbek tilshunosligida J.Ibragimov kollokatsiyalarni "xususiy birikuvchili birikmalar" termini bilan nomlab, tadqiq qilgan [1.: 237 b.].

Xususiy birikuvchili birikmalar ko'p hollarda o'zaro juftlik hosil qiluvchi, yonma-yon keladigan so'zlar birikuvidan tashkil topadi. Ularning birgalikda ishlatilishi ma'no jihatdan uyg'un va til me'yorlariga mos keladi. O'zbek tilida bu tipdagi so'z birikmalari sirasiga *qat'iy qaror*, *zilol suv*, *asfalt yo'l*, *oppoq qor* kabilarni kiritish mumkin. Bunday birikmalarda leksik a'zoldan biri boshqasini taqozo qiladi.

So'z birikmalari shaklidagi metaforalar nutqimizda juda ko'p uchraydi. Masalan: *umr bahori*, *qalb qo'ri*, *fan cho'qqilari*, *hayot manbayi*, *hayot so'qmoqlari*, *do'zax eshigi*, *jannat kaliti* kabilar. Bunday metaforik ko'chimli so'z birikmalari nutqimizda tayyor holda uchraydi. Ular shakliy xususiyatiga ko'ra qaratqich-qaralmish ko'rinishida bo'ladi. Bunday birikmalar mavhum tushunchalarga aniqlik kiritishda muhim ahamiyatga ega. Nutqimizda o'xshashlikka asoslangan bunday metaforik birikmalar semantik transformatsiya asosida yuzaga keladi. Masalan, *ishq olovi* so'z birikmasi "*ishq olov kabi kuchli yondiradi*" konstruksiyasining taransformatsiyasi sanaladi. Ushbu so'z birikmasi ISHQ – BU OLOV konseptual modeli asosida yuzaga kelgan. Bu konseptual model ishqning quvvati, kuchini tushunishga yordam beruvchi inson ongida hosil bo'lgan mazmuniy obrazdir. Metaforik so'z birikmalarida ifodalangan konsept "konseptual metafora" deb ataluvchi kognitiv mexanizmning ta'siri ostida shakllanadi. Bu jarayonda bir konseptual maydonda ikkinchisiga ma'noni ko'chirishda yangi ma'no yuzaga keladi. Bunda so'z birikmasi odatdagi ma'nosidan farqli ravishda, ko'chma ma'noda qo'llanadi. Natijada so'z birikmasining umumiy ma'nosi uning alohida qismlari ma'nolarining mexanik yig'indisi sifatida emas, balki kognitiv metafora natijasida yuzaga keladigan yangi semantik butunlikka ega bo'ladi. Masalan, *hayot yo'li* metaforasi HAYOT – BU YO'L konseptual modeli asosida yuzaga keladi. Ushbu konseptual model orqali *hayot misoli yo'l* o'xshatishli qurilmasi voqelanishi ham mumkin. Yoki inson davlatning mustahkamligini obrazli tasavvur qilishi, ya'ni uni binoni mustahkam ushlab turadigan ustuniga o'xshatishi asosida ongida hosil bo'lgan DAVLAT – BU TAYANCH USTUN konseptual modeli tilda *davlat ustuni* so'z birikmasining voqelanishiga yo'l ochadi. Bu so'z birikmasida insonning mustahkam inshootning tashqi ofatlardan himoyalovchi vosita ekanligi haqidagi tasavvurlari davlatning ishonchli boshpana ekanligi haqidagi tasavvurlari bilan uyg'unlashgan.

Ilm nuri, *ilm chirog'i* so'z birikmalarining hosil bo'lishida ham konseptual metafora muhim rol o'ynaydi. Bu so'z birikmalari ILM – BU YORUG'LIK konseptual modeli asosida voqelangan birikmalardir. Bunday konseptual model til egalarining ilmni yorug'likka olib chiquvchi vosita sifatida idrok etishlari natijasida yuzaga kelgan. Anglashiladiki, konseptual metafora mavhum tushunchalarni (*umr*, *davlat*, *ishq*) aniq tushunchalar (*yo'l*, *ustun*, *yorug'lik*) vositasida izohlashga xizmat qiladi hamda tilda turli metaforik so'z birikmalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, metaforik ko'chimli so'z birikmalarining kognitiv tahlili so'zlarning kontekstdagi ma'nolari va metaforik qo'llanishlarini aniqlashga imkon beradi. Bu esa so'z birikmasida aks etgan konseptning barcha yashirin belgilarini ochib berishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu tahlil usuli metaforik ko'chimli so'z birikmalarida voqelangan konsept orqali dunyoning muayyan tillardagi manzarasini adresant tomonidan qanday idrok qilinishi va talqin etilishini aniqlash imkonini yaratadi.

Xullas, o'zbek tilida so'z birikmalarining hosil bo'lishida til egalari ongida shakllangan konseptual metaforalar o'ziga xos kognitiv mexanizm sifatida muhim o'rin tutadi. Buni quyidagi misollar tahlili asosida izohlaymiz. O'zbek tili badiiy matnlarida faol qo'llanuvchi *ishq azobi*, *qalbi daryo*, *ishq dardi*, *muhabbat dardi* kabi so'z birikmalari ham konseptual metafora orqali yuzaga kelgan. Ushbu so'z birikmalari ISHQ / MUHABBAT – BU OG'RIQ konseptual model asosida hosil bo'lgan. Insonning ishq-muhabbat ko'yida boshidan o'tkazgan dard-u azoblari, sog'inch tuyg'usi va shu kabi salbiy kechinmalari ishqni jismoniy og'riq, azob sifatida idrok etishiga sabab bo'lgan. Ishq-muhabbat haqidagi

bunday bilim va tasavvurlar ISHQ / MUHABBAT – BU OG‘RIQ konseptual metaforasining yuzaga kelishiga turtki bergan deyish mumkin. Anglashiladiki, *ishq azobi*, *ishq dardi*, *muhabbat dardi* kabi so‘z birikmalarida emotsional holat jismoniy og‘riq orqali kognitiv modellashirilgan. Bu holat tilda metaforik ko‘chimli so‘z birikmalarining konseptual metaforalar asosida hosil bo‘lishi va nutqda faol qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Umr daftari so‘z birikmasi o‘zbek tilida abstrakt hayot tushunchasini aniq predmet orqali ifodalovchi UMR – BU QAYDLAR DAFTARI konseptual modeliga asoslanuvchi qurilma hisoblanadi. Bu so‘z birikmasida *daftar* metaforasi ko‘chma ma’noga ega. *Daftar* aniq, moddiy obyektini anglatadi, *umr* esa abstrakt tushuncha bo‘lib, vaqtga bog‘liq jarayonni ifodalaydi. Ushbu so‘z birikmasidagi *daftar* metaforasining *kitob* leksemasi bilan almashinib kelishini inobatga olsak, inson tafakkurida har ikki birlik ham yozuvlar jamlanadigan, tarix va voqealar izchillik bilan qayd etib boriladigan manba sifatida idrok etiladi va shu xususiyati bilan *umr* tushunchasiga ko‘chiriladi. Natijada hayot jarayoni xuddi sahifalarga bitilgan voqealar majmuyi sifatida konseptuallashtiriladi.

Ushbu so‘z birikmasining turg‘unlashishida diniy motivning ham alohida o‘rni bor. O‘zbek tili sohiblarining e’tiqodiy tasavvurida odamzodning dunyoda bajargan solih va gunoh amallari o‘limiga qadar mas’ul farishtalar tomonidan nomayi amoliga qayd etib boriladi. Hisob vaqti yetganda, nomayi amolning qaysi tomondan kelishiga ko‘ra uning jannat yoki do‘zax ahlidan bo‘lishi ma’lum bo‘lishi bilan bog‘liq rivoyatlar bilan ham assotsiativ jihatdan xotira, taqdir, qismat kabi tushunchalarni faollashtiradi. Shunday qilib, *umr daftari* birikmasi konseptual metafora mexanizmi asosida shakllanadi va UMR – BU QAYDLAR DAFTARI konseptual modeli orqali abstrakt vaqt – makon munosabati aniq predmet vositasida idrok etiladi. Shu usul metaforik ko‘chimli so‘z birikmasi kognitiv xaritalash usuli asosida yuzaga kelganini isbotlaydi.

Ikkinchidan, ushbu metaforik ko‘chimli so‘z birikmasida abstraksiyalash va konkretlashtirish mexanizmi ham kuzatiladi, bunda mavhum tushuncha moddiy predmet vositasida ifodalanagan. Shuningdek, daftarga xos yozuv, sahifa, boshlanish, nihoya-yakun kabi uzvlar hayotiy bosqichlar bilan muvofiqlashtirilgan.

Umr bahori so‘z birikmasida esa hayotning bir bosqichi tabiat fasli orqali konseptuallashtirilgan. Ushbu so‘z birikmasi UMR – BU FASL konseptual modeli orqali voqelangan bo‘lib, umrni inson hayotining go‘zal, yoqimli va, odatda, shirin xotira sifatida esda qoluvchi bosqichi, ya’ni bahor fasli orqali idrok etishga asoslangan. Birikma tarkibidagi “bahor” – vosita maydoni, “yoshlik” esa maqsad maydoni sifatida voqelanaadi.

Bahor metaforasi o‘zbek tili sohiblari uchun ramziylikka ega: bahor – bu yoshlik. Ushbu birikma tarkibidagi *umr* abstrakt tushuncha bo‘lib, *bahor* leksemasi orqali konseptuallashtirilgan. Bahor o‘zbeklarda yangilanish, yasharish, o‘sinh, kuch-quvvat timsoli sifatida tasavvur hosil qiladi. Bu bilimlar hayotning muayyan davriga – kishilar kamolotida muhim o‘sinh pallasi, shaxs sifatida shakllanishning, dunyoqarash kengayishining ko‘tarilish bosqichiga aynan “ko‘chiriladi”. “Bahor” va “yoshlik” tushunchalarini birlashtiruvchi yana bir sifat – beg‘uborlik. Aynan shu davrda insonlarning o‘z oldilariga maqsadlarni qo‘yishi, baland marralar uchun intilishi kuzatiladi. Bu fasldagi ko‘kalamzorlashish, yashillikka burkanish, gullash jarayonlari inson hayotidagi jismoniy va ruhiy kamolotni tasvirlash uchun xaritalash kognitiv mexanizmi orqali moslashtiriladi.

Umr bahori so‘z birikmasi VAQT konseptining nominativ maydoniga ham oid, bunda davriylik obrazli sxemasi ham ishtirok etadi. Vaqtning aylanishi, ma’lum bir sikl asosida bahorning boshqa fasllar bilan almashinib borishi inson umrining bosqichli ekanligiga ishora qiladi. Demak, *umr bahori* birikmasi tabiat hodisasiga asoslangan konseptual metafora orqali hayotning eng sermahsul, kuch-quvvatga to‘la beg‘ubor davrini kognitiv jihatdan ifodalovchi birlikdir.

Shunisi xarakterliki, ushbu metaforik ko‘chimli so‘z birikmalari har doim ham ijobiy ma’no bo‘yog‘iga ega birliklar asosida yuzaga kelmasligi mumkin. Yuqoridagi *umr bahori* birikmasi ijobiy mazmun asosiga qurilgan bo‘lsa, *umr egovi* birikmasida salbiy mazmun kuzatiladi. Ushbu birikma ham o‘zbek tili sohiblarining obrazli tafakkuri asosida yuzaga kelgan metaforik so‘z birikmasi bo‘lib, abstrakt “umr” tushunchasining aniq tushuncha orqali konseptuallashtirilishi sanaladi.

Umr(ning) egovi birikmasi asosida UMR – BU EGOVLANADIGAN JISM tipidagi konseptual metaforasi yotadi. Manba maydon sifatida “egov” so‘zi bilan bog‘liq bilimlar (metall yoki boshqa qattiq jismlarni silliqlovchi jism kabi) xizmat qiladi, maqsad maydon esa – “umr”, ya’ni inson hayotidir. *Umrning egovi* so‘z birikmasining yuzaga kelishida “umrni egovlamoq” iborasi ham bilvosita semantik va kognitiv asos vazifasini bajargan. “Egov” konsepti inson ongida silliqlash, ishqalash, shakl berish jarayoni bilan bog‘langan bilimlar asosida assotsiatsiya yuzaga keladi. Egov bilan egovlash jarayonidagi davomiylik, kuch sarfi hamda asta-sekinlik belgilari hayotning mashaqqatli o‘tishi, muttasil yoqimsiz ruhiy bosim ostida bo‘lish, kishi hayotining boshqa shaxs ta’siridaligi yoki nazoratida turganligi singari yoqimsiz g‘ashlik kabi ruhiy holatlar “umr” konseptiga bog‘lanadi. Shu bilan uzoq davom etuvchi yoqimsiz hayotiy jarayon birgina predmetga xos xususiyat asosida ixcham ifodalanadi. *Umrning egovi* birikmasining yuzaga kelishida assotsiatsiya muhim kognitiv vosita vazifasini bajaradi: inson ongida “egov” mashaqqat, chidash, holatga g‘ayriixtiyoriy tarzda sabr qilish va shu jarayonlarning uzluksiz takroriyliigi bilan bog‘liq tasavvurlar umrning og‘irligi yoki serzahmat kechishi haqidagi tasavvurlar bilan uyg‘unlashadi: *Xotinning yomoni* – *umrning egovi* (Maqol), *Qayg‘u* – *umr egovi* (Maqol). Natijada abstrakt hayotiy jarayon aniq jismoniy tajriba asosida obrazli talqin qilinadi. Demak, *umrning egovi* birikmasi turli kognitiv mexanizmlar uyg‘unligi natijasida shakllangan murakkab semantik-kognitiv konstruksiya sanaladi.

Yuqorida birgina “umr” maqsad maydonining vosita maydoni turli konseptual metaforalar (*yo‘l*, *bahor*, *egov*, *yo‘ldosh*, *daryo*, *daftar* va hokazo) birikishi bilan bog‘liq kognitiv tahlil mavjud. Anglashiladiki, konseptual metafora mavhum tushunchaga (*umr*, *ishq* kabilar) aniq tushunchalar (*yo‘l*, *og‘riq* kabilar) orqali tushuntirish berishga xizmat

qiladi, shu bilan birga, tilda turli metaforik ko'chimli so'z birikmalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Tahlillardan ko'rinadiki, metaforik so'z birikmalarining hosil qilinishi masalasini kognitiv aspektda tadqiq etish ularning nafaqat konseptual mohiyatini ochib berishga, balki inson ongi va tafakkurida kechadigan kognitiv jarayonlarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

O'zbek tilida shunday so'z birikmalari borki, ular nutqqacha o'zaro mantiqiy bog'liqlikni hosil qilgan, birini aytganda, ikkinchisi esga tushadigan erkin birikmalardir. Bunday so'z birikmalarida ifodalangan konseptlar til egalariga tanish, hamisha birga qo'llanadigan mustaqil so'zlardan tashkil topadi. Rus tilshunosligida so'zlarning bunday ko'chma ma'nolarda birikma hosil qilishini I.Y. Anichkov "ideomatika" (yunoncha *ideoma* – xususiyat, o'ziga xoslik) termini bilan nomlashni taklif qilgan[5.:B.14.]. Ideomalar til egalariga tanish leksemalardan yasaladi, boshqa tillardan olinmaydi. Ammo erkin va idiomatik so'z birikmalarining derivatsion qoliplari bir xil bo'lsa ham, ular orqali voqelangan hosilalar turlichadir. Lekin *oq paxta*, *oq qor* kabi so'z birikmalarida "oq" leksemasi hamisha birga qo'llanadi. Bu tipdagi erkin so'z birikmalardagi barqarorlik boshqa so'z birikmalariga nisbatan juda kuchli. Chunki *oq paxta*, *oq sut*, *oq qog'oz* kabilarning valentligi turg'un holatga kelib qolgan. Bu, albatta, *asfalt yo'l*, *yorqin kelajak* kabi otli sodda so'z birikmalari valentliklarida ham seziladi. Umuman, erkin so'z birikmalari tarkibida turg'un birikmalardan tashqari barqarorlashib borayotgan sifat + ot tipdagi bitishuvli birikmalar ham alohida ajralib turadi.

Shu o'rinda epitetli so'z birikmalarining metaforik ko'chimli so'z birikmalari bilan yondosh hodisa ekanligi oydinlashadi. Epitetli so'z birikmasi ham metaforik so'z birikmasi singari ko'chma ma'no asosida hosil bo'lishi mumkin va qismlari aniqlovchi + aniqlanmish munosabatiga asoslanadi. Masalan: *og'ir savdo*, *yorqin kelajak*, *ochiq suhbat*, *boy tajriba*, *temir intizom*, *achchiq haqiqat* va hokazo. Ushbu epitetli birikmalar narsa-predmetlar, voqea-hodisalarni odatdagidan farqli tarzda obrazli idrok etishga xizmat qiladi. Ular nutqqa yuqori ta'sirchanlik, badiiylik va ekspressivlik baxsh etadi. Masalan, *qaynoq muhabbat* birikmasida *qaynoq* sifatlashi orqali ishq-muhabbat tuyg'usining nihoyatda kuchliligi ifodalanadi. Bu o'rinda epitetda belgi ko'proq tasviriy va ruhiy-emotsional xarakterda bo'lishi, metaforada esa mantiqiy-kognitiv ko'chish ustuvorlik qilishini kuzatish mumkin.

Tahlillardan ko'rinadiki, konseptual metafora ishtirokidagi so'z birikmalarining mazmuni uning komponentlari bilan bog'liq konsept maydonlari asosida shakllanadi. Ularda konseptual integratsiya hodisasini ham kuzatish mumkin. Bunda inson tafakkurida turli konseptual maydonlar o'zaro birikib, yangi ma'no tuzilmasini hosil qiladi. Bu jarayonda kompressiya (murakkab tuzilmani ixchamlashtirish), selektiv proyeksiya (ayrim belgi va xususiyatlarni ajratib olish va ko'chirish), kompozitsiya (ma'no elementlarini birlashtirish) kabi kognitiv mexanizmlar faol qo'llanishi mumkin. Natijada oddiy sintaktik birikmaning ortida murakkab konseptual-kognitiv tuzilma shakllanadi va tilning boy ichki imkoniyati, lingvokreativlik salohiyati namoyon bo'ladi. Demak, konseptual integratsiya o'zbek tilida ekspressiv, obrazli til birliklarining yuzaga kelishida asosiy kognitiv omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimov J. O'zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari: Filol. fan. d-ri ... diss. – Qarshi, 2023. – 237 b.
2. Lewis M. Teaching Collocation. – Boston: Thomson Heinle Language Teaching, 2000. – 245 p.
3. Turabov A. Kichik sintaksis muammolari: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 76 b.
4. Xudayarova S. O'zbek tilidagi so'z birikmalarini modellashtrish muammolari masalasi // "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. Vol.1.– №1. – B.289-294.
5. Аничков И.Е. Идеоматика и семантика // Вопросы языкознания. – М., 1992. – № 5. – С. 14.
6. Борисова Е.Г. Коллокации. Что это такое и как их изучать? – М.: Филология, 1996. – 49 с.
7. Юлдашев А. Кўча маъноли сўзларда кognитив механизмларнинг ўрни // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – Тошкент, 2019. – №3. – Б. 58-59.

Annotatsiya. Ushbu maqolada metaforik ko'chim asosida shakllangan so'z birikmalarining semantik transformatsiya jarayoni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Metaforik ko'chim, konsept, konseptual metafora, kognitiv omil, semantik transformatsiya, tafakkur.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс семантической трансформации словосочетаний.

Ключевые слова: метафорический перенос, концепт, концептуальная метафора, когнитивный фактор, семантическая трансформация, мышление.

Abstract: This article discusses the process of semantic transformation in word combinations formed on the basis of metaphorical transfer.

Key words: metaphorical transfer, concept, conceptual metaphor, cognitive factor, semantic transformation, thinking.